

“TASDIQLANGAN”

“UzAuto Motors” AJ
Kuzatuv kengashining
2025-yil 1-avgustdagi
247-sonli yig‘ilish
bayoni, 7-ilovasi

**“UZAUTOMOTORS” AKSIYADORLIK JAMIYATIDA
KORRUPSIYAVIY XAVF-XATARLARNI BAHOLASH
USLUBIYOTI**

Toshkent 2025-yil

1 bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur uslubiyot “UzAuto Motors” AJda (bundan buyon – “Jamiyat”) yuklangan vazifa va majburiyatlarni bajarishda Jamiyat rahbariyati va xodimlariga yuklangan funktsiya va majburiyatlari doirasida yuzaga keladigan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va ularni minimallashtirish va boshqarish bo'yicha yagona yondashuvni belgilab beradi.

2. Mazkur uslubiyot xaridlarni amalga oshirish va xodimlar bilan mehnat munosabatlarini tartibga solish jarayonlarida yuzaga kelishini mumkin bo'lgan korrupsion xavflarni boshqarish uchun qo'llanilmaydi. Ushbu korrupsion xavflarni boshqarish alohida xujjatlar doirasida amalga oshiriladi.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022-yildagi “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PQ-240-sonli qarori talablariga asosan xavf-xatarlarni baholash, mazkur karor bilan tasdiqlangan “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo'linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Uslubiyotiga” asosan amalga oshiriladi.

4. Quyidagilar Jamiyatdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashning maqsadi hisoblanadi:

Jamiyat faoliyatini kompleks tahlil qilish orqali korrupsiya xavf-xatariga eng ko'p moyil bo'lgan funktsiya va lavozimlarini belgilash;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha samarali¹ oldini olish choralari ishlab chiqish.

5. Jamiyatdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash quyidagilarni ishlab chiqilishini nazarda tutadi:

Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi;

Jamiyatda, korrupsiyaga qarshi kurashish choralari (tadbirlar)ni, mas'ul shaxslarni, amalga oshirish mexanizmi va muddatlarini o'z ichiga belgilab olgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur.

6. Jamiyatdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash har yili yoki quyidagi holatlar yuzaga kelganda amalga oshiriladi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni birlamchi baholash zaruriyati;

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik talablarining o'zgarishi;

funktsiya yoki tartib-taomilning amalga oshirilishiga sezilarli² ravishda ta'sir ko'rsatuvchi Jamiyatning ichki hujjatlari o'zgarishi;

¹ Samaralilik mavjud xavf darajasini pasaytirish bilan o'lchanadi.

² 10 balldan ortiq o'zgarish sezilarli deb hisoblanadi.

Jamiyat tuzilmasining, funksiyalarini amalga oshirishida o'ziga xos jihatlarining o'zgarishi, yangi funksiyalarning yuklanishi;

Jamiyat funksiyalarining korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa shart-sharoitlarning kelib chiqishi.

7.Ushbu Uslubiyotda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

qoldiq xavf-xatar – korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirishga qaratilgan choralarni qabul kilingandan so'ng qoluvchi xavf-xatar (ya'ni, amaldagi korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatni va tartib-taomillarni, xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni va joriy etilgan nazoratlarni hisobga olgan holda);

korrupsiyaviy xavf-xatar – xodimlar yoki uchinchi shaxslar tomonidan Jamiyat nomidan va (yoki) ularning manfaatlarini ko'zlab korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish xavfi;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash – Jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan funksiyalarni tahlil qilish, ularning korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasini aniqlash, shuningdek funksiyalar doirasida amalga oshiriladigan tegishli tartib-taomillar uchun o'ziga xos va qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash faoliyati;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasi – Jamiyatdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari bo'yicha tuziladigan va Jamiyat funksiyalari va tartib-taomillarining umumiy ro'yxati, tegishli funksiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq ehtimoliy korrupsiyaviy xavf-xatar (sxemalar) tasnifi, o'ziga xos va qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasi, ularni minimallashtirish choralari va aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan xodimlar lavozimlarini o'z ichiga oluvchi birlashgan hujjat;

korrupsiyaviy xarakatlar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlarini yo'lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo'lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog'oz, boshqa ko'rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

tartib-taomil – Jamiyat funksiyalarini amalga oshirish doirasidagi xodimlar, bo'linmalar tomonidan bajariladigan yoki bitta natijaga qaratilgan, yohud ma'lum bir funksiyaaning ajralmas elementi hisoblangan, alomatlar bo'yicha bir guruhga birlashtirish mumkin bo'lgan harakatlar yig'indisi;

funksiya – bir nechta tartib-taomilni o‘z ichiga olishi mumkin bo‘lgan Jamiyatning ichki jarayon (faoliyat yo‘nalishlari)laridan biri;

ekspert fikri – aniq fakt yoki hodisa yuzasidan ma’lum bir sohada maxsus bilimlarga ega jismoniy shaxs tomonidan berilgan xulosa.

o‘ziga xos xavf-xatar – Jamiyat faoliyati va amalga oshirilayotgan funksiyalari spetsifikasidan kelib chiqadigan xavf-xatari, shu bilan birga uni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilishi hisobga olinmagan holda (ya’ni, amaldagi korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va tartib-taomillari, xavf-xatalarni minimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar va joriy etilgan nazoratlar hisobga olinmagan holda);

tizim korxonalaraning korrupsiyaviy xavf-xatarlari xaritasi – Jamiyat tizim korxonalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari bo‘yicha tuziladigan hamda organ yoki muassasa funksiyalari va tartib-taomillarining umumiy ro‘yxati, tegishli funksiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq ehtimoliy korrupsiyaviy xavf-xatar (sxemalar) tasnifi, o‘ziga xos va qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasi, ularni minimallashtirish choralari va aniqlangan korrupsiyaviy xatarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun mas’ul bo‘lgan xodimlar lavozimlarini o‘z ichiga oluvchi hujjat.

8. Jamiyatdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Komplayens xizmati tomonidan Jamiyat rahbari topshirig‘i asosida amalga oshiriladi. Jamiyat rahbari topshirig‘ida baholashni o‘tkazish aniq muddatlari ko‘rsatiladi.

9. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashda Komplayens xizmati quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

Jamiyat bo‘linmalaridagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ullarni jalb qilgan holda Jamiyatda xavf-xatarlarni baholash jarayonini tashkillashtiradi;

Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayoni ustidan umumiy nazoratni amalga oshiradi;

Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ullar, shuningdek Jamiyat, tizim korxonalariga mazkur Uslubiyotda ko‘zda tutilgan tartibga rioya qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar va maslahatlar beradi;

Jamiyat rahbariga xavf-xatarlarni baholash natijalari va korrupsiyaviy xavf-xatarlarning xaritasini taqdim etadi;

tasdiqlangan xavf-xatarlar xaritasi asosida bo‘linmalar tomonidan ishlab chiqilgan korrupsion xavflar bo‘yicha chora-tadbirlar loyihalarini ko‘rib chiqadi va ularni qabul qilish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa beradi;

bo‘limlar tomonidan ishlab chiqilgan korrupsion xavflar bo‘yicha chora-tadbirlar loyihalarini umumlashtiradi va Jamiyatning korrupsion xavflar bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqadi;

Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarini muvofiqlashtiradi va ularni nazorat qiladi;

ushbu Uslubiyotda ko'zda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

Komplayens xizmati zarur hollarda Jamiyat tizim korxona rahbarlari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullardan qo'shimcha axborot va hujjatlarni talab qilib oladi.

10. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullar quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

o'z bo'linmalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholanishini tashkil qiladi va o'tkazadi;

o'z bo'linmalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni xaritasini tuzadi, korrupsion xavflar bo'yicha chora-tadbirlar loyihalarini ishlab chiqilishini tashkillashtiradi va ushbu Uslubiyotda ko'zda tutilgan tartibda kelishilishini ta'minlaydi;

o'z bo'linmalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarini amalga oshirishni muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi;

ushbu Uslubiyotida ko'zda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullar zarur hollarda Jamiyat boshqa bo'linmalari yoki xodimlaridan qo'shimcha axborot va hujjatlarni talab qilib oladi.

2 bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash

11. Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayoni tegishli buyruqlar va ularda ko'rsatilgan muddatlar asosida amalga oshiriladi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashning umumiy muddati 3 oydan oshmasligi lozim.

12. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash funksiyalarning korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasini baholash va tegishli funksiyalar va jarayonlar doirasida Jamiyat xodimlari tomonidan amalga oshiriladigan ayrim tartib-taomillarning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholashni o'z ichiga oladi.

13. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash, pastdan (Jamiyat bo'linmalaridan) tepaga (Jamiyat rahbariyati darajasigacha), mazkur bobning 13-24 bandlarida ko'rsatilgan tartib va ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

14. Komplayens xizmati ushbu Uslubiyotiga 1-ilovada keltirilgan Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini ishlab chiqish bo'yicha Jamiyatning bo'linmalariga ko'rsatma yuborilishini ta'minlaydi.

Ko'rsatmada tasdiqlangan Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini Komplayens xizmatiga taqdim etish muddatlari ko'rsatilib, bu muddat yigirma besh ish kunidan kam bo'lmashligi kerak.

15. Jamiyat bo'linmalari tomonidan Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini ishlab chiqilib, Komplayens xizmatiga Jamiyat uchun yagona Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzish maqsadida kiritiladi.

16. Jamiyat bo'linmalari tomonidan ishlab chiqilgan Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga oid savollar yuzaga kelgan taqdirda, Komplayens xizmati xodimlari tegishli bo'linmalarga izoh berish yoki xaritaga tuzatish kiritish uchun so'rov yuboradi. Bunda, so'rovga javob so'rov olingan kundan boshlab besh ish kunidan oshmagan muddatda yuborilishi lozim.

17. Komplayens xizmati xodimlari o'z ekspertlik fikriga tayangan holda Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi loyahasiga o'zgartirishlar kiritishlari mumkin.

18. Jamiyat bo'linmalarining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritalari asosida Komplayens xizmati Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini ishlab chiqadi.

19. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini tuzish muddati, Jamiyat bo'linmalarining korrupsiyaviy xavf-xatarlari xaritasi tasdiqlangan sanadan boshlab, o'n ish kunidan oshmasligi kerak.

20. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasi Jamiyat Komplayens xizmati taqdimnomasiga asosan Jamiyat rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

21. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning xaritasida yuqori va o'rta xavf darajasida baholangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar uchun mas'ullar ushbu Uslubiyotining 2-ilovasiga muvofiq korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxatiga kiritiladi.

22. Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxati Komplayens departamenti taqdimnomasiga asosan Jamiyat rahbari va tegishli tizim korxonalar rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi.

23. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning xaritasida yuqori va o'rta xavf darajasida baholangan Korrupsiyaviy xavf-xatarlar bilan ishlash doirasida bo'linmalar tomonidan ushbu korrupsion xavflar bo'yicha chora-tadbirlar rejasi Uslubiyotning 3-ilovasiga muvofiq Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning xaritasi tasdiqlangan sanadan o'n ish kuni ichida ishlab chiqilib tasdiqlanadi.

24. Jamiyatning Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi 6-ilovaga muvofiq Jamiyat bo'linmalarining korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarini inobatga olgan holda Komplayens xizmati tomonidan ishlab chiqiladi hamda Jamiyat raxbari tomonidan tasdiqlanadi.

25. Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarning qayta baholash doimiy ravishda, bir yilda kamida bir marta, qoida tariqasida yil boshida Jamiyat rahbarining tegishli buyrug'i asosida o'tkaziladi.

3-bob. Jamiyatda amalga oshiriladigan funksiyalar va tartib-taomillarning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholash tartibi

26. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash tashqi va ichki axborot manbalaridagi ma'lumotlar tahlili asosida amalga oshiriladi, jumladan:

Jamiyatning funksiyalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va Jamiyatning ichki hujjatlari (misol uchun, nizomlar, protseduralar, xodimlarning lavozim yo'riqnomalari va h.k.);

ichki tekshiruvlar materiallari, shu bilan birga xizmat tekshiruvlari materiallari;

ichki audit va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha monitoring natijalari;

manfaatdor tomonlar va shaxslar orasida o'tkazilgan so'rov, jumladan ijtimoiy tadqiqotlar natijalari bo'yicha Jamiyatning xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy harakatlarga oid murojaatlar;

Jamiyat faoliyatidagi huquqbuzarliklarga oid statistik ma'lumotlar;

korrupsiyaviy harakatlar to'g'risida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallariga kelib tushgan jismoniy va yuridik shaxslarning murojatlari, shu jumladan anonim murojaatlar;

Jamiyat xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy harakatlar yoki odob-ahloq qoidalariga rioya qilmaslik to'g'risida OAVdagi ma'lumotlar;

ijtimoiy tarmoqlarda qoldirilgan izohlar;

huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan taqdim etilgan materiallar, jumladan jinoyat ishlariga doir axborotlar va boshqalar.

27. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayonida Jamiyatning har bir funksiyasi, jarayoni va tartib-taomili bo'yicha korrupsiyaviy harakatlarni sodir etilishi imkoniyatlar borligi bo'yicha tahlil qilish lozim.

28. O'rganilayotgan funksiya doirasida amalga oshirilayotgan tartib-taomillarning o'ziga xos xavf-xatarini baholash quyidagi mezonlarga ko'ra amalga oshiriladi:

Korrupsiyaviy xavf-xatarining vujudga kelish ehtimoli (1 balldan – 5 ballgacha);

Korrupsiyaviy xavf-xatarining vujudga kelishi natijasidagi oqibatlar (5 balldan – 25 ballgacha).

29. Korrupsiyaviy xavf-xatar oqibat darajasi aniqlash quyidagi mezonlar yigʻinidisini hisoblash orqali amalga oshiriladi:

- moliyaviy zarar darajasi (1 balldan – 5 ballgacha);
- tashkilot imidjiga zarar darajasi (1 balldan – 5 ballgacha);
- xuquqiy oqibatlardan zarar (1 balldan – 5 ballgacha);
- biznes jarayonlarga taʼsiri (1 balldan – 5 ballgacha);
- ijtimoiy-ahloqiy taʼsiri (1 balldan – 5 ballgacha).

30. Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholash xavf-xatarni vujudga kelish ehtimoli (mazkur Uslubiyotning 4-ilovasi 1.1 jadvaldagi mezonlarga qarang) va korrupsiyaviy xavf-xatarning oqibat darajasi (mazkur Uslubiyotining 4-ilovasi 1.2 jadvalidagi mezonlarga qarang) ning kupaytmasini hisoblash orqali amalga oshiriladi.

31. Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlar quyidagi uch toifaga ajratiladi:

yuqori korrupsiyaviy xavf-xatarlar (61 balldan – 125 ballgacha);

oʻrta korrupsiyaviy xavf-xatarlar (31 balldan – 60 ballgacha);

past korrupsiyaviy xavf-xatarlar (5 balldan – 30 ballgacha).

32. Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholash natijasida uning qaysi xavf-xatar toifasiga toʻgʻri kelishi ushbu uslubiyotning 5-ilovasidagi matritsadan foydalanib amalga oshiriladi.

5 bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarning qoldiq darajasini minimallashtirish choralari

33. Jamiyatda yuqori va oʻrta korrupsiyaviy xavf-xatarlar nisbatan quyidagi usullardan birini qoʻllaniladi:

ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish;

inson omilini qisqartirish va jamiyat faoliyatini (vazifa, funksiya va jarayonlarini) raqamlashtirish, shaffoflikni taʼminlash, jamoatchilik nazoratini yoʻlga qoʻyish;

jamiyat faoliyatini (vazifa, funksiya va jarayonlarini) tartibga solish choralari koʻrish;

jamiyat xodimlari va jismoniy shaxslar oʻrtasida toʻgʻridan-toʻgʻri aloqani maksimal darajada cheklash;

rasmiy veb-sayt va boshqa ommaviy axborot vositalarida jamiyat tomonidan amalga oshirilayotgan davlat xaridlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni joylashtirish va tarqatish;

jarayonlarni soddalashtirish, asossiz cheklovlarni, ortiqcha ma'muriy tartib-taomillarni bekor qilish, byurokratik tartibga solish mexanizmlarini yo'q qilish, taqdim etilgan hujjatlar soni va qaror qabul qilish muddatlarini qisqartirish;

jamiyat tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan tushuntirish ishlarini amalga oshirish, profilaktik suhbatlar o'tkazish, ishonch telefonlari va aloqa kanallarida targ'ibot ishlarini amalga oshirish;

xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha ichki hujjatlarga har kuni, o'zaro va to'liq rioya qilishlarini nazorat qilish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni vujudga keltirayotgan funktsiya, vazifa yoki jarayondan voz kechish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni vujudga keltirayotgan funktsiya, vazifa yoki jarayonni outsorsingga berish orqali nazorat qilish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish imkonini bo'lmaganda funktsiya, vazifa yoki jarayonni qo'shimcha nazorat mexanizmlarini joriy etish orqali monitoring qilib borish.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha qonunchilik hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa chora-tadbirlarni ham amalga oshirishi mumkin.

34. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlarini belgilashda:

har bir chora Jamiyat xodimlari uning maqsadlari, pirovard natijasi va ma'lum bir korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish bilan aloqasini tushunishi uchun aniq va ravshan ifoda etilishi;

har bir chora uchun uni amalga oshirish muddati yoki davriyligi belgilanishi, uni amalga oshirish uchun mas'ul shaxslar, amalga oshirilishini monitoring qilish va samaradorligini baholash mexanizmlari aniqlab olinishi zarur.

35. Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga kiritilgan, aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlari Jamiyatning Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlariga ham kiritiladi.

36. Jamiyatdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish ustidan nazorat Komplayens xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

6 bob. Yakuniy qoidalar

37. Zarurat bo'lganda, Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bilan bog'liq masalalar bo'yicha Komplayens xizmati tomonidan Jamiyat rahbariga takliflar kiritiladi.

**“UZAUTOMOTORS” AJda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni
baholash uslubiyotiga
1-ilova**

“UZAUTOMOTORS” AJning Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi

[illegible]

“UZAUTOMOTORS” AJda
korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash
uslubiyotiga
2-ilova

Korrupsiya xavf-xatariga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar
RO‘YXATI

No	Bo‘linma nomi	Lavozim (funktsiyalarini bajarish uchun mas’ul bo‘lgan shaxslarni ko‘rsatgan holda)

“UZAUTOMOTORS” AJda
korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash
uslubiyotiga
3-ilova

_____ bo‘linmasining
Korrupsion xavflar bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi

№	Korrupsiyaviy xavf-xatar tavsifi	Korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish bo‘yicha choralar/tadbirlar/tartib-taomillar	Bajarish muddatlari	Mas’ul ijrochilar (FISH, lavozimi)	Kutilayotgan natija
	1. Funksiyasi nomi _____				
	1.1. Jarayon nomi _____				
	1.2. Jarayon nomi _____				
	2. Funksiyasi nomi _____				
	2.1. Jarayon nomi _____				
	2.2. Jarayon nomi _____				

“UZAUTOMOTORS” AJda
korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash
uslubiyotiga
4-ilova

4.1-jadval – Korrupsiyaviy xavf-xatar ehtimoli darajasini
aniqlash mezonlari

Korrupsiyaviy xavf-xatar ehtimoli darajasini aniqlash mezonlari	Korrupsiyaviy xavf-xatar yuzaga kelish ehtimoli*				
	1 ball	2 ball	3 ball	4 ball	5 ball
Jarayon raqamlashtirilganlik darajasi bo'yicha					
Jarayon to'laqonli raqamlashtirilgan	☒	☐	☐	☐	☐
Jarayon qisman raqamlashtirilgan	☐	☒	☐	☐	☐
Jarayon raqamlashtirilmagan	☐	☐	☒	☐	☐
Inson omili ta'siri darajasi bo'yicha					
Inson omili mavjud emas	☒	☐	☐	☐	☐
Inson omili qisman mavjud	☐	☐	☒	☐	☐
To'laqonli inson omili ta'siridagi jarayon	☐	☐	☐	☐	☒
Qaror qabul qilishga mas'ullik darajasi bo'yicha					
Qaror inson omilisiz qabul qilinadi.	☒	☐	☐	☐	☐
Qaror 5 va undan ortiq bo'lgan kollegial organ tomonidan qabul qilinadi	☐	☒	☐	☐	☐
Qaror 5 kishigacha bo'lgan kollegial organ tomonidan qabul qilinadi	☐	☐	☒	☐	☐
Qaror kollegial tarzda bir bo'lim xodimlari tomonidan qabul qilinadi	☐	☐	☐	☒	☐
Qaror bir inson tomonidan qabul qilinadi	☐	☐	☐	☐	☒
Jarayon xujjatlashtirilganligi darajasi bo'yicha					
Jarayon to'laqonli ichki va tashqi xujjatlarda tartibga solingan.	☒	☐	☐	☐	☐
Jarayon qisman ichki va tashqi xujjatlarda tartibga solingan.	☐	☐	☒	☐	☐
Jarayon umuman ichki va tashqi xujjatlarda tartibga solinmagan.	☐	☐	☐	☐	☒
Jarayon nazoratga olinganligi darajasi bo'yicha					
Jarayon to'laqonli inson omilisiz nazoratga olingan.	☒	☐	☐	☐	☐
Jarayon qisman inson omilisiz nazoratga olingan.	☐	☒	☐	☐	☐
Jarayon to'laqonli inson omili bilan nazoratga olingan.	☐	☐	☒	☐	☐
Jarayon qisman nazoratga olingan.	☐	☐	☐	☒	☐
Jarayon umuman nazoratga olinmagan.	☐	☐	☐	☐	☒
Jarayon bilan bog'liq korrupsion xodisalar mavjudligi bo'yicha					
Jarayon bilan bog'liq korrupsion holatlar bo'lmagan.	☒	☐	☐	☐	☐
Jarayon bilan bog'liq korrupsion holatlar 5 yil va undan ortiq bo'lgan	☐	☒	☐	☐	☐
Jarayon bilan bog'liq korrupsion holatlar 3 yildan 5 yilgacha bo'lgan muddatda bo'lgan.	☐	☐	☒	☐	☐
Jarayon bilan bog'liq korrupsion holatlar 1 yildan 3 yilgacha bo'lgan muddatda bo'lgan.	☐	☐	☐	☒	☐
Jarayon bilan bog'liq korrupsion holatlar oxirgi 1 yil ichida sodir bo'lgan.	☐	☐	☐	☐	☒
Jarayon yuzasidan tashqi tomonlar bilan aloqalar mavjudligi bo'yicha					
Jarayon yuzasidan tashqi tomonlar bilan aloqalar yo'q	☒	☐	☐	☐	☐
Jarayon yuzasidan tashqi tomonlar bilan aloqalar mavjud, ammo ushbu aloqalar korporativ elektron dasturlar orqali amalga oshiriladi.	☐	☒	☐	☐	☐
Jarayon yuzasidan tashqi tomonlar bilan aloqalar mavjud, ammo bu aloqalar tashkilot xududida video kuzatuv va audio yozib olinadigan maxsus xonalarda amalga oshiriladi.	☐	☐	☒	☐	☐
Jarayon yuzasidan tashqi tomonlar bilan aloqalar mavjud va bu aloqalar tashkilot xududida nazoratsiz amalga oshiriladi.	☐	☐	☐	☒	☐
Jarayon yuzasidan tashqi tomonlar bilan aloqalar tashkilot tashqarisida nazoratsiz amalga oshiriladi.	☐	☐	☐	☐	☒

* Ushbu matritsa yordamida har bir korrupsion xavf-xatar barcha yo'nalishlar bo'yicha baholanishi lozim. Baholash natijasi bo'yicha Korrupsiyaviy xavf-xatar yuzaga kelish ehtimolini belgilashda yo'nalishlar ichidaga eng yuqori bo'lgan ball tanlab olinadi.

4.2-jadval – Korrupsiyaviy xavf-xatarning oqibat (ta'sirchanlik) darajasini aniqlash mezonlari

1. Moliyaviy zarar darajasi.

1 ball	Moliyaviy yo'qotishlar yo'q
2 ball	Kichik yo'qotishlar (yillik daromadning 1–5%).
3 ball	O'rtacha yo'qotishlar (yillik daromadning 5–10%).
4 ball	Katta yo'qotishlar (yillik daromadning 10–20%).
5 ball	Kritik yo'qotishlar (yillik daromadning 20% dan ko'prog'i).

2. Tashkilot imidjiga zarar darajasi.

1 ball	Tashkilot imidjiga zarar yo'q
2 ball	Imidjga ozgina salbiy ta'sir (mahalliy hodisa).
3 ball	Imidjga o'rtacha salbiy ta'sir (mahalliy OAV va bloglarda yoritish).
4 ball	Imidjga sezilarli salbiy ta'sir (milliy ommaviy axborot vositalarida yoritish).
5 ball	Imidjning jiddiy yomonlashishi (asosiy mijozlarning ishonchini yo'qotish, keng ko'lamli janjal, boykot).

3. Xuquqiy oqibatlardan zarar.

1 ball	Xuquqiy oqibatlar yo'q
2 ball	Tashkilot xodimlariga nisbatan ma'muriy javobgarlik
3 ball	Extimoliy moliyaviy yo'qotishlar va vaqtinchalik cheklovlar bilan sud jarayoni
4 ball	Tashkilot xodimlariga nisbatan jinoiy javobgarlik
5 ball	Faoliyatni amalga oshirishga ta'qiq yoki maxlum xuquqlarni yo'qotish.

4. Biznes jarayonlarga ta'siri.

1 ball	Biznes-jarayonni amalga oshirishga ta'siri yo'q.
2 ball	Biznes-jarayonni amalga oshirishda vaqtinchalik qisqa kechikishlar.
3 ball	Biznes-jarayonni amalga oshirishda jiddiy kechikishlar.
4 ball	Biznes-jarayonni amalga oshirish sifatiga ta'sir etishi.
5 ball	Biznes-jarayonni to'laqonli to'xtab qolishi.

5. Ijtimoiy-ahloqiy muhitga ta'siri.

1 ball	Ijtimoiy-ahloqiy muhitga ta'siri yo'q
2 ball	Xodimlarning holat yuzasidan kichik norozilik extimoli
3 ball	Tashkilotning muhim xodimlarining noroziligi va ularning o'z hohishiga ko'ra mehnat shartnomasini bekor qilishi.
4 ball	Mahalliy hamjamiyatning ishonchini yo'qotish
5 ball	Ommaviy ish tashlashlar va norozilik namoyishlari.

Коррупциявий хавф-хатар даражасини баҳолаш матрицаси

Коррупциявий хавф-хатарнинг вужудга келиши натижасидаги оқибатлар	Коррупциявий хавф-хатарнинг вужудга келиш эҳтимоли				
	1 балл	2 балл	3 балл	4 балл	5 балл
5 балл	5	10	15	20	25
6 балл	6	12	18	24	30
7 балл	7	14	21	28	35
8 балл	8	16	24	32	40
9 балл	9	18	27	36	45
10 балл	10	20	30	40	50
11 балл	11	22	33	44	55
12 балл	12	24	36	48	60
13 балл	13	26	39	52	65
14 балл	14	28	42	56	70
15 балл	15	30	45	60	75
16 балл	16	32	48	64	80
17 балл	17	34	51	68	85
18 балл	18	36	54	72	90
19 балл	19	38	57	76	95
20 балл	20	40	60	80	100
21 балл	21	42	63	84	105
22 балл	22	44	66	88	110
23 балл	23	46	69	92	115
24 балл	24	48	72	96	120
25 балл	25	50	75	100	125

“UZAUTOMOTORS” AJda
korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash
uslubiyotiga
6-ilova

_____ ning
Korrupsiyaga qarshi kurashish Dasturi

№	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlari	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddatlari	Mas’ul ijrochilar (FISh, lavozimi)

